

YURIDIK RITORIKADA MADANIYATNING AKS ETISHI

*Xujaniyazova Hilola Turayevna
O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti o‘qituvchisi*

REFLECTION OF CULTURE IN LEGAL RHETORIC

*Xujaniyazova Khilola Turaevna
Uzbek State World Languages University Teacher*

ОТРАЖЕНИЕ КУЛЬТУРЫ В ПРАВОВОЙ РИТОРИКЕ

*Хужаниязова Хилола Тураевна
Узбекский государственный университет мировых
языков*

Преподаватель

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek advokatlari nutqida qo‘llaniladigan madaniyatga oid iboralar tahlil qilinadi va ularni qo‘llash orqali himoya nutqining ta‘sirchanligini oshirish ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: ritorika, nutq, madaniyat, advokat;

Annotation: This article analyzes the cultural expressions used in the speech of English and Uzbek lawyers and shows how to increase the effectiveness of the defense speech by using them.

Keywords: rhetoric, speech, culture, lawyer;

Аннотация: В данной статье анализируются выражения культуры, используемые в речи английских и узбекских юристов, и показано, как с их помощью повысить эффективность защитной речи.

Ключевые слова: риторика, речь, культура, юрист.



[https://orcid.org/
0009-0007-4256-0486](https://orcid.org/0009-0007-4256-0486)

hilola.x.t@gmail.com

Introduction. Ingliz va o‘zbek tillarida yuridik ritorikasida ham o‘ziga xos bo‘lgan umumiylik va milliylik xususiyatlari mavjud bo‘lib, yuristlar nutqida ham shu millatga xos bo‘lgan madaniy hayotini o‘zida aks ettirib turadi. Quyida ingliz va o‘zbek tillarida yuridik ritorikaning milliy-madaniy xususiyatlari muammosi tadqiqi tilib, uning o‘xshash va farqli jihatlari yoritib beriladi.

Hurmat ma‘nosini anglatuvchi lisoniy vositalar orqali nutqiy ta‘sir o‘tkazish. Hurmat so‘zi – kimsa yoki narsani qimmat tushunib, uni qadrlash, ulug‘lash, e‘zozlash tuyg‘usi degan ma‘noga ega. [1, 128] R.Adler, J.Rodmenlar “hurmat bu so‘zlovchining asl ruhiy holatini tinglovchiga ta‘sir qilmaslik maqsadida ko‘rsatmaslikdir”, deb biladilar. Jahl, xafagarchilik

kabi salbiy hislarni yashirish ham shular jumlasidan ekanligini e'tirof etadilar.

Tadqiqotimiz jarayonida ingliz tilida quyidagi misollar orqali advokatlar nutqida hurmat ifoda etilishi kuzatildi:

1) *Your Honor, I would ask the Court to please direct the witness to answer the question which has been asked*".

2) *"Excuse me?" "Excuse me? Did you discover any case-related evidence at the scene? When you went to the supposed crime scene, did you locate any evidence? failed. This can be used to support your arguments because it is true. Unable to verify. "Sir, we have not yet requested bail. Governor Buckley will now be unable to oppose him until he is sexually assaulted." Next, we discovered yarn inside this shed. They seem to have attached themselves to a bird*".

3) *Your Honor, I believe this testimony would fall within the excited utterance exception to the hearsay rule and would therefore be admissible*"

Tadqiqotimiz jarayonida o'zbek tilida **hurmatli** so'zini sudya, **sudya hay'ati**, **xalq maslahatchilari**, **ishtirokchilar** kabi murojaat so'zlar oldidan aksariyat hollarda qo'shib aytilishi kuzatildi. Bu esa sud jarayonida advokatlar nutqida hurmat va odob saqlash orqali muammoni hal qilishga oid majburiyatni ko'rsatadi. Masalan:

Hurmatli sudya hay'ati!

Mirsoliev o'z ko'rsatmasida dastlab porani olishga qasd qilgan bo'lganligini, lekin jabrlanuvchi uni javobgar qilmasdan, ishni mutlaqo yuqotishni talab qilganidan so'ng, shu ish qo'lidan kelmasligini tushinib, o'sha kuni rad etganligini, lekin jabrlanuvchi unga shu pulni berishga harakat qilganligini va uringanligini tushingach, uni mashinadan tushirib yuborganligini va porani mashinasiga majburlab tashlamasligi uchun mashinada qochganligini bildirgan. [2, 563]

MATERIALS AND METHODS.

Sudya janoblari va xalq maslahatchilari!

Tergov yo'l qo'ygan xatoni takrorlamaysiz degan umiddaman.

Mirsolievning tergov organi tomonidan aybi isbotlanmaganligi uchun, unga yuklatilgan barcha shubha uyg'otuvchi dalillar foydasiga hal etilib,

unga nisbatan oqlov hukmi chiqarishingizni so'rayman.

Hurmatli sud hay'ati, ishtirokchilar!

Bir necha kundan buyon davom etayotgan sud majlisida O'zbekiston Respublikasi JKning 169–modda 3–qism “a” bandi bilan sudlanayotgan Oripov..... [3, 380]

Sudlanuvchining dastlabki tergovda va sudda bergan ko'rsatuvlariga baho berish vaqtida, tergov organi tomonidan O'zR JPKning 112–modda talablariga rioya qilinmaganligiga e'tibor qaratish lozim deb hisoblayman. Chunki ushbu moddada "Gumon qilinuvchining u sodir etgan jinoyat haqidagi ko'rsatuvlari va ayblanuvchining o'z aybiga iqrar bo'lishi, bu iqrar bo'lish mavjud dalillar majmui bilan tasdiqlangan taqdirdagina, uni ayblash uchun asos qilib olinishi mumkin" degan talablar qo'yilgan. [4, 67-75]

DISCUSSION.

Odillik va adolatlilikka urg'u berish orqali nutqning ishonchligini ta'minlash. Har ikki tilda odillikka erishiga oid fikrlar va g'oyalar advokatlar nutqida kuzatildi. Masalan:

What I want to look at briefly, therefore, is the law of self-defence in what lawyers euphemistically refer to as "householder cases" – where force is used by a householder against a trespasser in a dwelling. In dipping into this legalese, I do not for a moment seek to minimise or cloak the stark reality that confronting a burglar in your home is one of the most terrifying experiences imaginable. Burglary of somebody's home is an offence which, in my view, is treated with relative disdain by the criminal justice system.

O'zbek tilida Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasini qayd etilishi kuzatiladi:

Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 11–moddasida jinoyatni sodir etishda ayblanayotgan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar bilan ta'minlanib, sud majlisida oshkora tartibda qonuniy yul bilan aybdorligi aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanish huquqiga ega deyilgan.

Demak, ikki xalq advokatlari nutqida umumiy bo'lgan xujjatlari tilgan olinishi nutqiy ta'sirchanlikni oshiradi. [5, 39-46]

Mamlakatning asosiy xuquqiy xujjatini tilga olish orqali nutqiy ta'sir. Mazkur lisoniy

hodisa ingliz yuridik nutqida, jumladan, **Angliya Konstitusiyasida** ham ko‘rish mumkin: *The Congress shall have Power to lay and collect Taxes, Duties, Imposts and Excises, to pay the Debts and provide for the common Defence and general Welfare of the United States; but all Duties, Imposts and Excises shall be uniform throughout the United States.*

Bu gapdagi *The Congress shall have Power to lay and collect Taxes* jumlasini qoliplashgan birikmalardan tarkib topgan. Yuridik ritorikaning ma‘lum bir qoliplashishi bu uning ijobiy jihati. Chunki yuridik nutqni ma‘lum bir jumla, so‘z birikmalari asosida shakllantirish huquqiy normani yoki huquqiy tushunchani osonlik bilan tushunilishiga, fuqarolar tomonidan tez qabul qilinishiga, ular ongiga bu qonunning tez singishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun yuridik tilni ma‘lum bir jumlar asosida qoliplashtirish lozim.

O‘zbek tilida JPK, ya‘ni jinoyat prosessual kodeksi misolida nutqda namoyon bo‘ladi. Masalan:

Sudning hukmi qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishi shartligi **O‘zR JPKning 455–modda talabidir.**

3) *Hurmatli sud va sud prosessi ishtirokchilari! Bugun biz O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 277–modda 2–qism “b, g” bandlari, 105–modda 2–qism “i” bandi bilan ayblanib, sudga berilgan Orziyev Azamat, Berdiqulov O‘tkir va boshqalarning jinoyat ishini ko‘rib chiqib, tugallash arafasida turibmiz. [6, 259]*

CONCLUSION.

Erkak advokatlarining sud jarayonida yuridik sohasiga oid O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat

Kodeksi, 277–modda, 2–qism “b, g” bandlar, 105–modda 2–qism “i” kabi soha terminlarini o‘rinli ishlatish orqali nutqiy ta‘sirchanlikka erishishlari kuzatiladi.

Yuridik ritorika davlat tomonidan qabul qilinadigan rasmiy hujjat bo‘lib, uni shu hududda, jamiyatda yashovchi fuqaro, kim bo‘lishidan qat‘i nazar, bajarishi, unga amal qilishi shart. Unda ifodalangan huquqiy normalar taxmin, istak, yoki gumon deb emas, balki bajarilishi shart bo‘lgan huquqiy norma deb qabul qilinadi. Yuridik ritorikani pirovardida hamma fuqarolarning xohish-irodasidan ustun turadi. Shunga ko‘ra qonunda qat‘iylik belgisi kuchli bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Adler R.B., Rodman G. Understanding Human Communication. – USA: The Dieren Press Saunders College Publishing, 2000. – P. 128.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. J. 5. – B. 563.
3. O‘zbekiston advokatlarining himoya nutqlari. Salomov B.S. tahr. ost. – Toshkent: Adolat, 2006. – 380 b.
4. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/j.1467>
5. <https://thesecretbarrister.com/2018/04/05/bashing-burglars-and-the-law-of-self-defence>.
6. <https://www.horrycountyschools.net/site/handlers/filedownload.ashx?moduleinstanceid>

